BUXORO VILOYATI BUXORO TUMANI HOKIMINING QARORI

200400, Gala-osiyo shahri, Buyuk ipak yo'li shoh ko'chasi, 54-uy, tel: (365) 54-25-762, 54-23-215, e-mail:buxoro.t@exat.uz

2022 - yil 15 - sentabr 402-2-32-Q/22 Buxoro tuman hokimligi

Viloyat hokimining 2022 yil 10 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 sentyabrdagi PF-215-sonli “O‘zbekiston Respublikasining To‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash haqida 469-2-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

Viloyat hokimining 2022 yil 10 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 sentyabrdagi PF-215-sonli “O‘zbekiston Respublikasining To‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash haqida 469-2-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2022 yil 10 sentyabrdagi 469-2-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 sentyabrdagi PF-215-sonli Farmoni bilan:

“O‘zbekiston Respublikasining To‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar jamg‘armasining boshqaruv kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan shakllantiriladigan dastlabki ustav kapitali 100 million AQSH dollariga teng bo‘lgan “O‘zbekiston Respublikasining To‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar jamg‘armasi” mas’uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi investisiya kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda - Investisiya kompaniyasi) sifatida qayta tashkil qilinganligi;

Investisiya kompaniyasiga hududiy loyiha guruhlari tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarni o‘zining investisiya siyosatida belgilangan mezon va talablarni hisobga olgan holda tanlab olib, hududlarda tadbirkorlar ishtirokida tashkil etilgan xolding kompaniyalari orqali ularning 49 foizgacha bo‘lgan qismini moliyalashtirish huquqi berilganligi;

Investisiya kompaniyasi va uning operasion tashkilotlariga belgilangan foyda

solig‘i stavkasi uch yil muddatga 50 foizga kamaytirilganligi;
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida"gi PF-5635-son Farmoni 7-9- bandlari o‘z kuchini yo‘qotganligi inobatga olinsin.

3. Viloyat hokimining o‘rinbosari - investisiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘i R.Asadov, viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi H.G‘oyirovga “G‘ijduvon” EIZ (O.Qazoqov), “Buxoro-agro” EIZ (F.Tilloyev), “Buxoro kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiyasi” (A.Bozorov) va tegishli tashkilotlar hamda shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda 2022-2023 yillarda hududiy sanoat zonalarini tashkil etish bo‘yicha loyihalar ro‘yxatini tasdiqlash uchun Investisiya kompaniyasining Kuzatuv kengashiga kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Viloyat investisiyalar va tashqi savdo boshqarmasi (F.Husenov)ga “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik" gazetalari tahririyati (Sh.Sulaymonov), viloyat teleradiokompaniyasi (F.Aminov), aloqador viloyat boshqarmalari va tashkilotlari, shaharlar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 sentyabrdagi PF-215-sonli “O‘zbekiston Respublikasining To‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishi, shuningdek, tadbirkorlik sub’yektlariga yetkazilishini ta’minlash topshirilganligi inobatga olinsin.

5. Ushbu qaror ijrosining nazorati tuman hokimining o‘rinbosari-investisiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i B.Madatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **X.Q.Juraev**